



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Abdurashidova Komila Salixdjanovna

Inklyuziv ta'limning jamiyatdagi roli - yangi ijtimoiy me'yorlar, xulq-atvor va kommunikativ munosabatlarning shakllanishiga asos bo'ladigan, ushbu ta'lim turi insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik va oshkoralik tamoyillariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilarning barcha bilan teng asosda o'qish va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun adolatlilikka asoslangan ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish.

- Ta'lim jarayoniga jalb etilgan o'qituvchilar, ota-onalar hamda jamoa a'zolarida nogironligi yoki boshqa alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarga nisbatan sabr, mehr, tushunish va ijobiy munosabatni kuchaytirish.
- Sog'lom bolalar bilan bir qatorda maxsus ehtiyojli o'quvchilarning aqliy salohiyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ko'maklashish.
- Har bir bola uchun davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlarini egallash imkoniyatini teng ravishda ta'minlash.
- Bolalarning shaxs sifatida har tomonlama o'sishini qo'llab-quvvatlash, ularning hissiy-ruhiy rivojiga turtki berish, bilim olishga bo'lgan rag'batini oshirish va ijtimoiy hayotga moslashuvini yengillashtiradigan pedagogik sharoitlar yaratish.
- Maxsus ehtiyojli o'quvchilarning oilalarini zarur maslahatlar bilan



ta'minlash, ularni zamonaviy o'qitish uslublari va metodlari bilan tanishtirish, shuningdek psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish tizimini tashkil qilish.

Shuningdek:

- Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim shakllari va boshlang'ich korreksion sinflar — aholining real ehtiyojlari va ota-onalar (yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslar)ning murojaatlari asosida tashkil etiladi.
- Bunday sinflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyat yoki Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasining buyrug'i bilan ochiladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari ham barcha zarur sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etishlari mumkin. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish tegishlicha hududiy xalq ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta'lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinflar tashkil etilgan umumta'lim maktablarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi hamda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan uslubiy jihatdan boshqariladi va muvofiqlashtirib boriladi.

Inklyuziv ta'lim shaklidagi sinflar hamda boshlang'ich korreksion guruhlarga o'quvchilarni qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



	Maktabning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar ular 7 yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi
	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yorida 2 yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi
	O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi
	Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi
	Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib o'qish istagini bildirgan o'quvchilar o'quvchini qabul qilayotgan maktab joylashgan hududning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyasi yo'llanmasiga asosan qabul qilinadi
	O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi



Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga yo'llangan har bir o'quvchiga ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilishda quyidagi shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi hujjatlar taqdim etiladi.

O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi hujjatlar	
	Ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi
	Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi
	Ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun).
	O'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun).
	O'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:



Bolalar toifalari	
	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar)
	Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar)
	Somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar)
	Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish)
	Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi — pakanalik)
	Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar
	Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji)
	Intellectual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar
	Hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar



0	Intellectual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda)
---	---

Maktab rahbariyati yuqoriga qayd etilgan toifadagi bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga xaqli emas. Quyidagi toifadagi bolalar esa qabul qilinmaydi:

	Bolalar toifalari
	Aqliy rivojlanishi o'ta zaif bolalar
	Xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar
	Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar
	Ko'r-kar-soqov bolalar
	Tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtlarda tutqanog'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar
	Markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siydik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10 oktabrdagi "Alohida talim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga talim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4860-sonli qarori



Inklyuziv maktablar barcha o`quvchilarni o`z tengqurlari ichida mahalliy maktablarda ta`limini ta`minlagan holda buni qo`llab-quvvatlaydilar, tan oladilar va qadrlaydilar .²

Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish omillari	
Tashkiliy va metodik jihatlar	Ijtimoiy va resurs omillari
Erta tashxis tizimini samarali yo'lga qo'yish	Ota-onalarning faol va tizimli ishtirokini ta'minlash
Maktabgacha ta'limda inklyuziv hamda integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy etish	Pedagoglarning malakasini muntazam oshirib borish
Maxsus va umumta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik	Sinf va guruhlarda mehribonlik hamda do'stona muhitni mustahkamlash
Resurs pedagoglarning faol va sifatli ish yuritishi	Mahalla va jamoat tashkilotlarining faol ishtiroki
Ta'lim muassasalari	Inklyuziv ta'lim resurs markazi, ota-

² R.Sh.Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.



infratuzilmasini alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirish	onalar va pedagoglar o'rtasida hamkorlik
Moddiy-texnik bazani mustahkamlash	Huquqiy asoslarning mavjudligi va amaliy qo'llanilishi

Samarali inklyuziya individual afzalliklar, ehtiyojlar va farqlarni tan olishni hamda ularni qabul qilishni o'zida mujassam etadi. Pedagoglar o'quvchining har birini alohida xususiyatlarini, ularning shakllanishiga ta'sir qiluvchi turli omillarni hisobga olmasdan o'qita olmaydilar. Nogironlik, irq, tilni egallash malakasi, jinsi va iqtisodiy holati kabi tomonlar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim dasturini o'zlashtirishga va shaxslarning o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi; shu sababli pedagoglar, o'quvchilar va ularning oila a'zolari inklyuziv amaliyotga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak. Bu esa o'z navbatida adolatlilik, hamkorlik tamoillarini bevosita amalga oshirishga, individual afzalliklar va ehtiyojlarini aks ettirishga hamda farqlarini qabul qilishga zamin yaratadi. Inklyuziv sinflarda barcha o'quvchilar o'qishga qobiliyatli va jamiyatga ulush qo'shuvchi shaxslar sifatida qadrlanadilar. Ularni farqlarini tushunishga, individual o'xshashliklari va tafavvutlarini qadrlashga va shu orqali o'qishga hamda o'rganishga o'rgatadilar.

Samarali inklyuziya pedagoglardan o'quvchilarga munosabatlarini qaytadan ko'rib chiqishni, baholash, o'qitish va sinfni boshqarish uslublarini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish talab etiladi hamda o'quv dasturida ko'zda to'tilgan umumiy ta'lim maqsadlariga hamma o'quvchilarning teng ulgurishlarini ko'zda tutadi. Inklyuziv sinflarda o'qituvchi atrof muhitga qarab o'zgaruvchi mutaxassisdir va ular o'z o'quvchilarining kuchli tomonlari va ehtiyojlaridan yaxshi



habardor bo'lgan mexribon hamda moslashuvchidir. Ular o'z kadriyatlarini va qarashlarini tanqidiy baholaydilar hamda faoliyatlarini doimiy ravishda o'zini mukammallashtirish va barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadlariga yo'naltiradilar. Har bir pedagog ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashuvni qo'llaydi va o'qitish usullarini moslashtiradi. Bu moslashuv baholash shakllari, umumiy o'rta ta'lim dasturiga kirish imkoniyati, ta'lim strategiyasi va texnologiyalari, universal hamda jismoniy dizayn, kerakli jihozlar, asbob-uskunalar, sinfni boshqarish texnikasi va boshqa o'quvchilarning ehtiyojlariga qaratilgan resurslarga bog'liq bo'lgan yo'llarga asoslanadi.

Samarali inklyuziya esa jamoaning umumiy maqsadi bo'lib, u pedagoglar, mutaxassislar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka tayanadi. Inklyuziya o'quvchilarning umum ta'lim tizimi sinflaridagi ehtiyojlarini hisobga oluvchi o'quvchilar jamiyatini tuzishga intiladi. Odamlar o'zaro hamkorlikda va birgalikda ishlaydilar, jamiyat yaratadilar. Ular doimo munosabatda bo'ladilar, resurslar, majburiyatlar va tajriba bilan o'zaro almashinishadi, malum bir masalalarni o'quvchilar foydasiga xal bo'lishi yo'lida birlashadilar. Xalq ta'limi boshqarmalari ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan dasturlarini restrukturizatsiyalash (qayta moslashtirish) dagi hamkorlikdagi faoliyatni qo'llab-quvatlaydilar, vaqt va resurs bilan taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10 oktabrdagi "Alohida talim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga talim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4860-sonli qarori

2. R.Sh.Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.



3.Kaxarova D.S. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. Monografiya. – T.:
«Fan va texnologiya», 2014. – 192 b.